

**XORIJ ONLAYN NASHRLARI FAOLIYATIDA KROUDSORSING.  
(BBC.COM INTERNET NASHRI MISOLIDA)**

**Dilyafruz Jumamuratova**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Qoraqalpoq filologiyasi va Jurnalistika fakulteti 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13340551>

**Annotasiya.** Ushbu ilmiy maqolamizda biz ommaviy axborot vositalari faoliyatida kroudsorsing texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarini xorij onlayn nashrlari reytingida yuqori o‘ringa ega "BBC.com" internet nashri misolida o‘rganamiz.

**Kalit so‘zlar:** Kroudsorsing, platforma, media muhit, kroudfunding, bbc.com, the guardian.com, The counted, Reuters, Blomberg, Popular science.

**CROWDSOURCING IN THE ACTIVITIES OF FOREIGN ONLINE PUBLICATIONS.  
(IN THE EXAMPLE OF THE BBC.COM WEB PUBLICATION)**

**Abstract.** In this scientific article, we study the processes of using crowdsourcing technologies in mass media activities on the example of the Internet publication "BBC.com", which has a high place in the rating of foreign online publications.

**Keywords:** crowdsourcing, platform, media environment, crowdfunding, bbc.com, the guardian.com, The counted, Reuters, Bloomberg, Popular science.

**КРАУДСОРСИНГ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗАРУБЕЖНЫХ ИНТЕРНЕТ-ИЗДАНИЙ.  
(НА ПРИМЕРЕ ВЕБ-ПУБЛИКАЦИИ ВВС.COM)**

**Аннотация.** В данной научной статье мы изучаем процессы использования краудсорсинговых технологий в деятельности СМИ на примере интернет-издания «BBC.com», занимающего высокие места в рейтинге зарубежных интернет-изданий.

**Ключевые слова:** краудсорсинг, платформа, медиасреда, краудфандинг, bbc.com, The Guardian.com, The Counted, Reuters, Bloomberg, Popular Science.

---

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish jarayonlari yildan-yilga ortib bormoqda. Bu jarayon esa ommaviy axborot vositalari bilan auditoriya o‘rtasidagi muloqot o‘rnatishning yangi prinsip va mexanizmlarni ishlab chiqarishni taqozo etmoqda. Hozirgi media muhitda auditoriyani jalb qilish uchun bir qancha yangi texnologiyalardan foydalanilmoqda. Sababi har bir internet saytining media kontentin boyitish va reytingini ko‘tarish maqsadida jahon internet nashrlari kroudsorsing platformalarini o‘z faoliyatiga tadbiiq etgan. Bugungi ilmiy maqolamizda esa Buyuk Britaniya internet nashrlarida kroudsorsing

texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarini o'rganamiz. Eng avvalo kroudsorsing atamasi qanday ma'noni anglatadi va ommaviy axborot vositalari reytingini ko'tarish uchun qanday xususiyatga ega ekanligi haqida ma'lumot berib o'tamiz.

Kroudsorsing (inglizcha crowdsourcing, crowd-omma va sourcing- resursdan foydalanish) insonlarning yaratuvchanligi, tajriba va bilimlariga asoslangan holda muammolarni hal etish va yangi brendlarni yaratish.

Kroudsorsing texnologiyalari ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muommalarga inson resurslaridan foydalangan holda yechim topish imkonini beradi. Ilk bora 2003-yil Luis fon Ax jamoasi bilan birgalikda " insonlar hisobiga " ya'ni, kompyuter bajara olmaydigan ishlarni jamoaviy oson va tez bajarish mumkin ekanligini kroudsorsing tushunchasi orqali amaliyotga tatbiq etdi. 2006-yilga kelib "Wired" jurnali muxbiri Djeff Xou o'zining "Kroudsorsingning paydo bo'lishi" (The Rise of Crowdsourcing) deb nomlangan kitobida bu tushunchaga tarif berdi. Shu orqali kroudsorsing imkoniyatlaridan foydalanish jamoatchilik e'tiboriga taqdim etildi.

Shu xususiyatga ko'ra kroudsorsingni ikki kategoriyaga ajratish mumkin;

1. Biznes, ijtimoiy, siyosiy sohalarda keng qo'llanish

2. Bu sohalarga doir masalalarga yechim topish uchun (ovoz berish, fikrlarni yig'ish, kontent yaratish va qo'llab-quvvatlash xizmatidan foydalanish.

Kroudsorsing texnologiyalari: katta maydon shakllanishi, foydalanuvchilarni jalb etish, katta tanlov, axborot xaridorligini oshirish, qisqa vaqt oralig'ida muommalarga yechim topish kabi afzalliklarga ega.

Jurnalistika sohasida esa bu atama ma'lum bir muomma yoki mavzu yuzasidan axborot tarqatuvchilar va iste'molchilar, ya'ni ommaviy axborot vositalari va auditoriya o'rtasidagi hamkorlikni bildiradi.

Bugungi kunda xorijiy davlatlar orasida kroudsorsing texnologiyalaridan nufuzli foydalanib kelayotgan internet nashrlari qatorida Buyuk Britaniya ommaviy axborot vositalari, asosan onlayn veb-saytlar yuqori o'rinni egallagan. Bu davlatda o'z faoliyatini yuritib kelayotgan veb-saytlar ro'yxati juda ko'p. Ular orasida BBC.com va The Guardian.com internet nashrlari yuqori reytingga ega.

BBC News Online- BBC News veb-sayti BBC ning yangiliklar yig'ish va ishlab chiqarish uchun ma'sul bo'limi. Bu eng mashhur yangiliklar veb-saytlaridan biri bo'lib, 2021-yil aprel oyida 1.2 mlrd kishi veb-saytga tashrif buyurgan. Bu esa Buyuk Britaniya davlatining 60% dan ziyodi ushbu veb-saytdan foydalanishidan dalolat beradi. BBC.com internet nashri 32 tilda faoliyat

yuritib kelmoqda. Veb-sayt 1997-yili 4-noyabrda ishga tushirilgan va unga muharrir sifatida Mayk Smartt tayinlagan va loyiha direktori Bob Eggington ushbu saytga rahbarlik qilgan.

BBC News Online xalqaro yangiliklarni, shuningdek Britaniya ko'ngil ochar, fan va siyosiy yangiliklarni o'z ichiga oladi. 2006-yil iyun oyida real vaqt rejimida global foydalanuvchilarga ma'lumotlarni taqdim eta boshlagan. Saytning ikki xil nashri mavjud:

1. Buyuk Britaniya hayotiy voqealarni yorituvchi Buyuk Britaniya nashri.
2. Xalqaro miqyosda sodir bo'layotgan voqea va yangiliklarni yorituvchi xalqaro nashr.

Saytda sof yangiliklar, maqolalar bilan bir qatorda BBC yangiliklari, dolzarb voqealar va taktik dasturlarni qo'llab-quvvatlash uchun materiallar ham mavjud. BBC News Online muxbirlari o'z mutaxassisligi bo'yicha maqolalar yozish uchun blog uslubdagi tizimdan foydalanadi. Shu sababli jamoatchilik vakillari tahririyatga o'z fikr mulohazalarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu kabi funksiyalar bilan tahririyatning "Muharrirlar blogi" shug'ullanadi.

On This Day - BBC yangiliklar arxivi veb-saytning nomi. Bi-bi-si tomonidan xabar qilingan yangiliklarning onlayn raqamli kutubxonasi hisoblanadi. Bu bo'limda onlayn tarzda nashr qilingan matnli yangiliklar, video va audio ko'rinishdagi onlayn hisobotlar joylashtirilib boriladi. Hozirgi kunda bu bo'lim faqat matnli versiyaga ega.

BBC News Online veb-saytning sport yangiliklarini yoritishga ixtisoslashgan bo'limida 2024-yil 7-avgust kuni nashr qilingan eng sara yangiliklar quyidagilardan iborat:

1. Braziliya terma jamoasi jahon chempionatida Ispaniyani mag'lub etib Parijda bo'lib o'tgan 2008-yilgi ayollar futbol final o'yinini takrorladi.
2. Irren Paredesning avtogoli Braziliyani yo'lga qo'ydi. Gabi Portilya tanaffusida ikkinchi gol urib, ko'pchilik oltin medal uchun favorit deb hisoblangan tomonni hayratda qoldirdi.
3. Saloh va Karvalya "Liverpool" ga "Arsenal" ustidan g'alaba qozonishdi.

Arne Slotning yangi ko'rinishi "Liverpool" Premer ligadagi raqibi "Arsenal" ni Filadelfiyada Muhammad Saloh va Fabio Karvalyaning gollari evaziga 2:1 hisobida mag'lub etdi.

BBC.com yangiliklar veb-saytining asosiy e'tiborli jihati shunda, bu veb-saytda yangiliklar har xil soha vakillariga ixtisoslashgan. Sababi veb-saytga tashrif buyuruvchi barcha o'quvchilar va ularning asosiy obunachilari o'z qiziqish va intilishlariga asosan o'ziga ma'qul bo'lgan barcha yo'nalishdagi eng so'nggi yangiliklarni o'ziga qulay tarzda tomosha qilish, o'qish va eshitish imkoniyatiga ega.

Yanada obunachilar veb-saytga joylangan barcha yangiliklarga o'zining mustaqil fikrini bildirish va shu orqali veb-saytning reytingini ko'tarish imkoniyatiga ham ega. Aslida, kroudsorsing texnologiyalari va platformalarining asosiy maqsad va vazifalari ham shundan

iborat, ya'ni har bir veb-saytni har xil yo'nalishdagi audio, matn va video ko'rinishda tayyorlangan kontentlar bilan boyitish.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, bugungi axborot asrida yashayotgan dunyo aholisining deyarli barchasi axborot manbalari va yangiliklarni tezkor tarzda o'qishga o'rgangan.

Faqat matnli yangiliklar bilan cheklanish esa, o'z faoliyatini yuritib kelayotgan barcha onlayn nashrlarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Shu sababli operativ tarzda auditoriyaga yetkazilgan va multimedia vositalari bilan boyitilgan yangiliklarni ommaga yetkazish, eng avvalo veb-saytlarning reytingini ko'tarishga sababchi bo'lsa, ikkinchi tomondan auditoriya sonining o'sishiga xizmat qiladi. Kroudsorsing texnologiyalarini jamoatchilik hayotiga tadbiiq etish orqali ushbu natijalarning barchasiga erishishimiz mumkin.

### REFERENCES

1. N.Murotova, N.Qosimova, G.Alimova, A.Dadaxanova, A.Ilyasova, S.Xolmatova, N.Hakimova. Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar VII jild. T. 2019
2. N.Qosimova Internet jurnalistikasining texnologik asoslari. T.2012
3. N. Qosimova, G.Bobojonova, L.Islomova. Axborot xizmati: jamoatchilik bilan samarali muloqot. T.2012
4. D. Rashidova, N.Muratova.Internet jurnalistika. T. 2007
5. Витвинчук В.В. Краудсорсинговые технологии в современной российской журналистики// социодинамика. 2017
6. Howa J. The rise of crowdsourcing- New York: Leaf Press.2008
7. www.bbc.com